

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI

“Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrası

**4-bosqich “B” guruh talabasi Abdulahatova Sevaraning “Adabiyot
o‘qitish metodikasi” fanidan yozgan**

КУРС ИШИ

MAVZU: 7-sinfda “Ravshanxon” dostonini o‘rganish

Tekshirdi:

Z.Rayimberdieva

Andijon-2012

Mavzu: 7-cinfda “Ravshanxon” dostonini o‘rganish

1. Barkamol avlod tarbiyasida xalq dostonlarining o‘rni

2. Joriy adabiy ta’lim dasturi va darsliklarda xalq

dostonlarining berilishi xususida

3. 7-sinfda «Ravshanxon» dostonini o‘rganishni tashkil

etish.

**4. “Ravshanxon” dostoni tahlili jarayonida o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni
singdirish.**

5. Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Barkamol avlod tarbiyasida xalq dostonlarining o‘rni

Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati-badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari deb ta’riflashi bejiz emas albatta¹.

Hurmatli yurtboshimizning adabiyotga bunday yuksak baho berishi bekorga emas. Chunki inson ma’naviyatini shakllantirishda, e’tiqodini qaror toptirishda adabiyotning o‘rni beqiyosdir va bu narsa ko‘pincha adabiyot darslarida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston istiqloлга yuz tutgach hamma sohalarda tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta’lim va tarbiya ishini tubdan qayta qurishga alohida e’tibor berildi.

Bugungi kunda maorif xodimlari zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklatilgan. Negaki, yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash, har tomonlama yetuk, yuksak ma’naviyatli, barkamol shaxs qilib tarbiyalash ulkan vazifa hisoblanadi. “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun” va “kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ning asosini ham barkamol iqtidorli, zamonaviy, yuksak did va ma’naviyatga ega bo‘lgan, mustaqil va erkin fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash ishi tashkil qiladi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari ham shu asoslardan kelib chiqadi.

Maktab adabiy ta’limi jamiyat ma’naviyatini shakllantirishda eng ko‘p ishtirok etadigan faoliyat turi bo‘lganligi uchun uni sog‘lom mantiqqa to‘g‘ri keladigan tarzda shakllantirish boshlandi.

O‘zbek xalq dostonlari tengsiz ma’naviy-madaniy boyligimiz, milliy iftixorimizdir. Ular qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o‘zlari yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an’anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhining ob’ektiv holatini davrlararo ifodalab bizgacha og‘zaki ravishda yetib kelgan ulkan adabiy obidalar hisoblanadi. Zero, xalq dostonlari milliy tariximizning afsonalar qobig‘ig‘a o‘ralgan qaxramonlik voqealarning o‘ziga xos badiiy ifodasidir. Komillik sari intilgan hozirgi yosh avlodni bunday milliy adabiy me’rosimiz bilan tanishtirish ham adabiy ta’limning zimmasidagi vazifadir.

Doston o‘zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Olimlar XIX asr oxiridan XX asrning ikkinchi yarmiga qadar o‘zbek baxshilari tomonidan kuylangan yuz ellikka yaqin doston borlig‘i aniqlangan va variantlari bilan qo‘shib hisoblaganda, ulardan, ulardan to‘rt yuztacha asar yozib oligan. Folklorchi olimlarning aytishlaricha, birgina “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar yuzdan oshadi, yolg‘iz “Alpomish”ning qirqdan ortiq varianti bor.

“Doston” forscha so‘z bo‘lib, qissa, hikoya sarg‘uzasht, ta’rif ma’nolarini bildiradi. Adabiy atama sifatida ham folklorning, ham yozma adabiyotning muayyan janrini anglatadi. Xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlarni yozma dostonlardan farqlash uchun ular xalq dostonlardan

¹ И.Каримов Юксак маънавият-енгилмас куч Т.: Маънавият. 2008

farqlash uchun ular xalq dostonlari deb yuritiladi. Favqulotda xususiyatlarga ega qahramonlarning boshidan o'tgan qaltis voqealar she'r va nasriy yo'lda aralash tasvirlangan yirik hajmli, muallifi noma'lum epik asarlar xalq dostonlari deyiladi.

Xalq dostonlari olimlar tomonidan quyidagi turlarga ajratilgan:

- 1.Qaxramonlik dostonlari.
- 2.Jangnoma dostonlar
- 3.Romantik dostonlar
- 4.Tarixiy dostonlar
- 5.Kitobiy dostonlar

O'zbek xalq dostonchiligi taraqqiyotida ko'pgina qatlamlar bo'lsa-da, ayniqsa, ikki qatlam, davomiy ikki bosqich-qahramonlik va romanik dostonlar bosqichi alohida ajralib turadi. O'zlarining yaratilish davri va yuzaga kelgan muhiti bilan ham, tematikasi, g'oyaviy mazmuni, ijtimoiy voqelikni tasvirlash usullari bilan ham bu dostonlar bir-birlaridan jiddiy farq qiladi. Biroq ular bir necha asrlar davomida baxshilar tomonidan baravar kuylab kuylab kelingan, shuning uchun ham bu xil dostonlar orasida doimiy ijodiy aloqa mavjud bo'lgan.

Jang-u jadallar, tarixiy yoki afsonaviy urushlar va bunday jang epizodlarida qo'shin va yakka shaxslarning jasoratlarini tasvirlovchi dostonlar jangnoma dostonlar deb yuritiladi.

Tarixiy dostonlarda tarixiy haqiqat bilan afsona, fakt bilan badiiy to'qima chatishib ketgan bo'ladi, ya'ni bunday asarlarda konkret tarixiy voqelikka folklorga xos ravishda yangi mano beradi va baxolanadi. Shu bilan birga, ularning temasi, obrazlari, tashigan g'oyalari konkret tarixiy sharoitdagi kurashlar bilan boglikdir.

Romanik dostonlar feodalizm davrining ijtimoiy-siyosiy munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, ularning mohiyatini sevgini mojarolari, qo'rqinchli sarguzashtlar, ertakka xos fantastik voqealar, shu bilan birga, hayotiy hodisalar tasviri belgidaydi.

O'zbek baxshilari repertuaridan mustahkam o'rin olgan yepik asarlarning maxsus bir turini –klassik poeziya namunalarining baxshilar tomonidan folklorga xos ravishda qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan yoki yaratilishi jihatidan yozma adabiy manbaga yega bo'lgan, shuningdek, bevosita yozma adabiyot tasirida yaratilgan asarlar kitobiy dostonlar deb yuritiladi.

O'zbek baxshilari repertuaridan mustahkam o'rin olgan epik asarlarning maxsus bir turini-klassik poeziya namunalarining baxshilar tomonidan folklorga xos ravishda qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan yoki yaratilishi jihatidan yozma adabiy manbaga ega bo'lgan, shuningdek. Bevosita yozma adabiyot ta'sirida yaratilgan asarlar kitobiy dostonlar deb yuritiladi.

Joriy adabiy ta'lim dasturi va darsliklarda xalq dostonlarining berilishi xususida

O'zbek xalq dostonlari tengsiz ma'naviy-madaniy boyligimiz, milliy iftixorimizdir. Komillik sari dadil odimlab kelayotgan yosh avlodni mana shu boyligimiz bilan tanishtirish, bu iftixor tuyg'usini ularning qalbiga singdirish -masalasi Xalq ta'limi vazirligi boshqarmasidagi mutasaddi shaxslarning nazaridan -chetda qolmagan. Umumta'lim maktablarining "Adabiyot" (7,8,9-sinflar) darsliklarida "Ravshan (7-sinf)", "Kuntug'mish" (8-sinf), "Alpomish" dostonlaridan parchalar, ularning shaxsi, doston va uning turlari haqida nazariy ma'lumotlar berilgan. Shularga tayangan holda quyidagi doston janrining umumta'lim maktablarida o'rganilish ahvoli xususida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman

7-sinfda o'rganiladigan birinchi badiiy asar xalq og'zaki ijodining eng sara namunalaridan biri "Ravshan" dostonidir. Dostonni o'rganishda 3 soat vaqt ajratilgan. O'qituvchi belgilangan vaqt ichida umuman xalq dostonlariga xos, xususan "ravshan" asariga taalluqli xususiyatlar haqida ma'lumot berishi, darslikdagi parcha bilan o'quvchilarni to'liq tanishtirishi, ayni vaqtda mazkur parchani atroflicha tahlil etishi hamda dasturda talab qilinganiga muvofiq badiiy obrazlar haqida o'quvchilarda tushuncha shakllantirishi lozim. Agar o'qituvchi vaqtdan samarali foydalanish malakasini egallamagan bo'lsa, bu tadbirlarni bajarishga ulgurmay qoladi.

Fikrimcha, adabiyot o'qituvchisi birinchi soatda "Ravshan" dostonini kuylagan Ergash Jumanbulbul o'g'lining (1868-1937) hayot yo'li, ajdodlari haqida qisqa va qiziqarli ma'lumot berishi kerak.

"ravshan" dostonini o'rganishga bag'ishlangan –soatda dostonning qolgan qismi o'qiladi va darslikdagi saa-vol-topshiriqlarga tayangan holda tahlil qilina boshlanadi. Dostonni o'rganishga ajratilgan vaqtning

-soatida xalq dostoni, badiiy obraz tushunchalari borasida o'quvchilarga ma'lumot berish ko'zda tutiladi.

8-sinf "Adabiyot" darsligida "Kuntug'mish" dostoni mavzusini o'rganish uchun 4 soat vaqt ajratilgan. Ushbu soatlarga mavzuning bo'limlari quyidagicha taqsimlanadi.

Dostonchilik maktabi va "Kuntug'mish" dostonining yaratilishi tarixi - 1 soat.

Dostonni tahlil qilish, undagi Kuntug'mish, Xolbeka, Gurkiboy, Moxiboy kabi obrazlar xususida suhbat -1 soat

Doston mazmun-mohiyati, uning badiiy xususiyatlari -1 soat.

Asarning badiiyati, til xususiyatlari. Ishqiy-qaxramonlik dostonlari haqida nazariy ma'lumot-1 soat.

“Kuntug‘mish” dostonini sinfda o‘rganish o‘quvchilardan katta bo‘lim, adabiyotimiz, uning tarixi, xalq og‘zaki ijodi haqida yetarli ma'lumot va tasavvurga ega bo‘lishni talab etadi.

Nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun turkiy dunyoning tengsiz badiiy boyligi hisoblanmish “Alpomish” dostonidan olingan parchani o‘rganishga dasturda 5 soat vaqt ajratilgan. Yillik o‘quv ish rejasida bu soatlar quyidagicha taqsimlangan.

- 1.Xalq og‘zaki ijodi haqida (1 soat)
2. “Alpomish” dostoni (1 soat)
- 3.Doston haqida nazariy ma'lumot (1 soat)
- 4.xalq dostonlari va turlari (1 soat)
5. “Alpomish” dostoni xarakterlari (1 soat)

Bundan ko‘rinadiki dars soatlarining aksariyati “Alpomish” dostonining tahlili, doston va uning turlari haqidagi nazariy ma'lumotlarga ajratilgan.

Fikrimcha, darsliklarda har bir mavzudan so‘ng beriladigan savol-topshiriqlar mavzuning qay darajada o‘zlashtirilishiga albatta ta’sir etadi.

7-sinfda «Ravshanxon» dostonini o‘rganishni tashkil etish

Yettinchi sinf dasturi darsligidagi «Muqaddas tuyg‘uning jilvasi» ruknida birinchi bo‘lib o‘rganilishi ko‘zda tutilgan badiiy asar xalq og‘zaki ijodining eng sara namunalaridan biri «Ravshan» dostonidir. Bu rukndagi asarlar, asosan, muhabbat atalmish sirli va yuksak tuyg‘uning turli darajadagi badiiy talqiniga bag‘ishlangan. Ma'lumki, o‘smir yoshidagi o‘quvchilar insonning umri mobaynida duch keladigan barcha ulug‘ sezimlardan xabardor bo‘lishi kerak. Negaki, bolalikdan balog‘atga o‘tish davrida eng nozik tuyg‘ular, kechinmalar nima ekanini bilmagan, shunday yuksak kechinmalar egasini tushunish va unga xayrixoh bo‘lishni bilmagan bola umrining oxiriga qadar, qancha yil yashamasin, bunday hislardan bahrasiz o‘tib ketishi mumkin. Shuning uchun ham bu rukndagi asarlar o‘rgatilayotganda, o‘qituvchi bolalarning har qanday nozik sezimlarni ilg‘ashga qodir odamlar ekanliklarini nazarda tutib ish ko‘rishi kerak bo‘ladi. «Ravshan» dostonini o‘rgatishga bag‘ishlangan birinchi darsning maqsadlari quyidagicha belgilansa, yangi pedagogik texnologiyalar nuqtai nazaridan ma’qul ko‘rinadi:

a) tarbiyaviy maqsad – o‘quvchilarda insonga xos nozik sezimlarni tuyish, o‘z Vatani va e’tiqodiga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish;

b) ta’limiy maqsad – o‘quvchilarni doston matni bilan tanishtirish, undagi obrazlarni tahlil qilishga o‘rgatish va badiiy timsol haqida tushuncha berish;

d) rivojlantirish maqsadi – o‘smirlarda aytgan gapi, tanlagan yo‘li, bosgan qadami, qabul qilgan qarori uchun javobgarlik hissini shakllantirish.

Dostonni o‘rganishga **uch soat** vaqt ajratilgan. O‘qituvchi belgilangan vaqt ichida umuman xalq dostonlariga xos, xususan, «Ravshan» asariga taalluqli xususiyatlar haqida ma’lumot berishi, darslikdagi parcha bilan o‘quvchilarni to‘liq tanishtirishi, ayni vaqtda mazkur parchani atroflicha tahlil etishi hamda dasturda talab qilinganiga muvofiq badiiy obrazlar haqida o‘quvchilarda tushuncha shakllantirishi lozim. Agar o‘qituvchi vaqtdan samarali foydalanish malakasini egallamagan bo‘lsa, bu tadbirlarni bajarishga ulgura olmaydi.

Fikrimizcha, adabiyot o‘qituvchisi birinchi soatda «Ravshan» dostonini kuylagan Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining (1868–1937) hayot yo‘li, ajdodlari haqida qisqa va qiziqarli ma’lumot berishi kerak. Chunonchi, shoirning ota-bobolaridan besh kishi, momolaridan ikki kishi ia ikki akasi xalq dostonlari va termalarini kuylovchi baxshilar bo‘lganligini aytib o‘tish darsni qiziqarli uyushtirishga asos bo‘la oladi. Ergash shoirning otasi Juman baxshi iste’dodining qudrati va kuylash mahoratining yuksakligi uchun el orasida Jumanbulbul deb nom taratgan, uning to‘la yod bilgan dostonlari yuz nafarga yaqin bo‘lgan.

«Ravshan» dostoni Go‘ro‘g‘li turkumiga kiruvchi asarlar sirasidan. Bu turkumdagi dostonlar soni yuzdan oshiqroq. O‘qituvchi Ergash shoirning ham favqulodda kuchli xotiraga, katta iste’dodga ega ijodkor ekanligiga o‘quvchilar e’tiborini tortishi kerak. Buning uchun folklorchilarni hamon hayratga solib kelayotgan bir hodisani o‘quvchilarga aytib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shoir keksaygan chog‘larida unga qozoq xalqining mashhur dostoni «Qiz Jibek»ni ikki marta o‘qib beradilar. So‘ng Ergash Jumanbulbul o‘g‘li dostonga qaramay, o‘zbek tilida «Qiz Jibek»ni deyarli o‘zgarishsiz ayrim to‘ldirishlar bilan kuylabgina qolmay, yozib ham chiqadi.

Dunyo baxshichilik an‘analaridan farq qilaraq Ergash Jumanbulbul o‘g‘li faqat quvvai hofizasiga tayanib qolgan baxshi shoirgina emas, balki maktab, madrasada ko‘rgan, atroflicha bilim olgan alloma ijodkor edi. Shuning uchun u dostonlarni kuylabgina qolmay, ba’zan yozgan ham.

O‘qituvchi ijodkor haqida shu xildagi ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni tanishtirishga 3–4 daqiqa sarflaydi. Shundan so‘ng o‘quvchilar asar matni bilan tanishadilar. Dostondan olingan parchani o‘qituvchi o‘zi o‘qigani ma’qul. Negaki, ko‘pchilik o‘quvchilar dostonning til xususiyatlaridan bexabar bo‘lganligi, uning ruhiyatini hali yaxshi anglamaganligi uchun ham asarning badiiy jozibasini ochib bera olmaydi. O‘qituvchi asarni o‘qishda darslikdan emas, balki dostonning o‘zidai foydalansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Parcha o‘qilayotganda qipchoq lahjasi unsurlariga e’tibor bergan holda matnning butun badiiy jozibasini namoyon etishga erishish kerak.

O'quvchilarni darslikdagi parchaning bir qismi bilan tanishtirishga 22–23 daqiqa vaqt ketadi. Demak, o'qituvchi 25–27 daqiqa orasida «Ravshan» dostonining matni bilan o'quvchilarni tanishtirishga, asar ijodkori haqida eng muhim ma'lumotlarni berishga ulguradi. Birinchi mashg'ulotning so'ngida o'qituvchi uyga vazifa sifatida hamma o'quvchilarga dostonidan olingan parchani qayta o'qish va o'zlariga ma'qul kelgan o'rinlarni qayd etishni topshiriq qilib beradi.

«Ravshan» dostonini o'rganishga bag'ishlangan ikkinchi mashg'ulotda dostonning qolgan qismi o'qiladi va darslikdagi savol-topshiriqlarga tayangan holda tahlil qilina boshlanadi. Shu soatda o'qituvchi dostonda badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishiga, qahramonlar ruhiyatining berilishiga o'quvchilar e'tiborini qaratishi kerak. Dostonni tahlil etishga, imkon boricha, o'quvchilar tortilishi kerak. Shunda ular badiiy asar matn ustida o'ylashga, uning jozibasini his etib, sehrli qirralarini topishga urinadigan bo'lishi kerak.

O'qituvchi «Ravshan» dostoni matni bilan tanishtirish, asar voqealari rivojini ta'minlaydigan omillarni belgilashda juda sezgirlik bilan ish olib borishi, matndagi barcha nozikliklarni o'z vaqtida idrok eta bilishi zarur. Aks holda, doston yigirma birinchi asr bolalarida shunchaki afsona, ko'ngil ochar rivoyatday taassurot qoldirishi mumkin. O'qituvchi doston boshida voqealar birorta qarama-qarshilik sezilmaydigan ekanini, asarda konflikt kutilmaganda paydo bo'lganiga e'tibor qaratishi lozim. O'spirin Ravshanning Avazxonning qizi Gulnorga mayli bor. Chunki qiz dostonda tasvirlanishicha ko'zga yaqin, e'tibor qilishga loyiq: *«Gulanor ko'p suluv: yaxshi suratli, shirin so'zli, quralay ko'zli, uzun bo'yli, keng ko'krakli, xush xayol, zehni tez, serfahm qiz edi. Ravshanbek uning bilan maktabda birga o'qiganda, ko'zining ostiga bosib qo'yar edi»*. O'qituvchi o'smirlarning e'tiborini tasvirdagi Ravshanning qizni *«ko'zining ostiga bosib qo'y»*ganiga tortishi kerak. Muallim bolalarni qiz bilan yigit o'rtasidagi munosabatlar sevgi emas, balki mayl darajasida ekaniga e'tibor qaratishlari kerak.

Keyingi bosqichda o'qituvchi ishi yurishib turgan, shu bois o'ziga bino qo'ygan barcha o'zbeklar singari Avazxonda ham tayinsiz dimog'dorlik, o'zini katta olish borligini payqashga talabalarini yo'naltirishi muhimdir. Chunki butun ovoragarchilik ana shu munosabat tufayli paydo bo'ldi. Asarning shu o'rnida otasiga qo'rslik qilgan, uning irodasiga qarshi borgan farzand holati ochiq chizib berilgan:

Ravshanga bermayman Gulnorjonni,
Qizim tugul, kuchugimdan sadag'a.

Bermayman Ravshanga Gulnor qizimni!
Men Hasanga teng qilmayman o'zimni!

O'quvchilar kattazanglik kishini qay ko'yga solishini ko'rib qo'yishlari kerak. Avaz Hasanxonni haqorpat qiladi, undan o'zini necha barobar katta chog'laydi, lekin biror o'rinda nega shunday deyotganligini izohlamaydi. Chunki kibr aralashgan joyda mantiqqa o'rin qolmaydi. Dostonda Ravshanning tabiati juda nozik ilg'ab olingan. Chunki u ham kimsan Go'ro'g'lining suygan nevarasi shu bois Avazning asossiz haqoratomuz e'tirozi uni o'rta yuborgani o'quvchilarni ishontiradi: «...*bir umrda sovuq shamol yemagan bola emasmi, sovuq so'z tugul, bolaning o'mganidan bir jazoyil teshib o'tgandan yomon bo'ldi. Ravshanxon tovushining boricha „vo“ deb baqirib, yig'lab qaytaverdi*». O'smirlar yomon so'zdan yarador bo'lgan o'spirin holatini ilg'ab olsalar, uning keyingi xatti-harakatlarini osonroq idrok etadilar.

Ravshanning o'ksik holati, hech kimdan, hech qachon shashti qaytmagan yolg'iz o'g'ilning o'rtanishi uning enasi Og'a Yunus pari bilan suhbatı vositasida juda ishonarli va real ko'rsatilgan: «...*bola har o'ksiydi, gapirolmaydi*.

— *E ena! Avazing: „Qizimni bermayman, mening tengim emas“,- deb bizni quzg'un, o'zini lochin tutdi. Bachchag'ar Avaz bizdan ortiq bo'lib ketibdi. Shu Avazdan kam bo'lsam, cho'llarga boshimni olib ketaman. Qo'yaver, ena, qo'yaver, endi Chambilda turmayman, shu Chambilni Avazga berdim, deb bola dim o'pkasini bosolmaydi*». Davlat miqiyosidagi qarorlar qabul qilinishi uchun oila darajasidagi mojarolar yetarli ekanligiga o'smirlar e'tibori tortilishi lozim. Shunda har bir o'quvchi o'zining xatti-harakatlari ham o'lhog'liq bo'lishi kerakligini tuyadi.

Baxshining mahorati shundaki, Ravshan mag'rur, bir oz erkatoı, shu bois keskin qarorlar qabul qilib, katta gaplar aytib yuborishga moyil o'spirin sifatida ko'rsatilsa, Yunus parining og'ir-bosiq, ayni vaqtda, o'ziga ishongan, hayotiy tajribasi katta kayvoni ekani gaplarining ohangi va mazmunidan bilinib turadi: «...*sen xafa bo'lma! Mana men, men borayin otangning orqasidan; uning qizda nimasi bor ekan? Tortib olib bersam ham Gulanorni senga olib beraman... Qani men borayin, „bermayman“,- degan Avazni ko'rayin, shu Avazmi qizini bermaydigan*». Enaning bu gaplarida o'zbek onalariga xos tajriba, bilgichlik bo'y ko'rsatib turibdi. O'ktam bir ayol sifatida u o'g'li Avazga zug'um o'tkazishi va qizini ravshanga berishga majbur qilishi mumkin edi. Lekin taqdirga odam tadbir ko'rolmaydi. Dostonda ayni shu narsaga urg'u berilayotgani o'qituvchilar nazaridan chetda qolmasligi kerak. Shunda Ravshanning hayotini tamomila o'zgartirib yuborgan kichkinagina holatning izohi topiladi: «*Shunday qarasa, Ravshanbek juda otashin. Shunda pari ko'nglida: „Bu bola achchig'i bilan bir yoqqa ketib qolmasin“,- deb xosiyatli uzugini ovunib o'tirsın deb, qo'lidan olib, Ravshanbekka berdi*».

O'qituvchi odam o'z qismatiga sababchigina ekani dostonda mahorat bilan tasvirlanganiga bolalar e'tiborini qaratishi lozim. Chunki Ravshanning «ketib qolmasligi» uchun berilgan uzuk,

aynan uning *ketib qolishiga* sabab bo‘ladi: «*Ravshanbek ko‘zining yoshini artib, shunday niginga¹ qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzida jami parini bandiga² olgan bandi³ bor, olam mamlakatiga bermaydigan xosiyati bor; har yerda suluv barno qiz bo‘lsa, oti bor; ba‘zi-ba‘zi juda nozik, uzik⁴ suluvning ham oti bor, ham surati bor, shu uzukning bir chetida Qoraxon podshoning qizi — Zulxumor degan bir qizning oti bor ham surati bor*». O‘qituvchi asarda badiiy timsolning tabiatiga zo‘rlilik qilinmaganiga, Ravshandan favqulodda fazilatlar izlanmaganiga, u shunchaki erkatoiy bir o‘spirin tarzida ko‘rsatilganiga o‘quvchilar diqqatini qaratsa, insonning tarix va o‘z taqdiri oldidagi missiyasi anglashilaveradi.

”Ravshanxon” dostoni taxlili jarayonida ykuvchilarga milliy kadriyatlarni singdirish

Dostonning har bir lavhasida milliy ruhiyat, milliy qadriyat, o‘zbekka xos sezimlar anglashilib turadi. Buni hech kimdan ruxsat olmay yo‘lga otlangan Ravshanga Hasanxon tomonidan aytilgan gaplardan ham buyilsa bo‘ladi:

Sen bo‘lmasang, otang holi ne kechar?
Sensiz menga falak kafanto‘n bichar,
Dunyoning bolini zahar deb ichar,
Qanday kuni kechar⁵ sho‘r enang nochor.

Menga aytgin ko‘nglingdagi o‘yingni,
Aytgin, bolam, boradigan joyingni,
Men bilayin talab qilgan elingni,
Ayt siringni qaytarmayman ra‘yingni

O‘ylamasdan ish qilib qo‘yib, otasini ko‘rgach, noqulay ahvolda qolgan Ravshan obrazi tasvirida ham kuchli milliylik barq urib turadi. Ma‘lumki, o‘zbekda bola otasidan hayiqibroq turadi. U ko‘nglidagi barcha gaplarni ham unga aytavermaydi. Bobosiga esa, nevara ancha yaqin bo‘ladi. Shu bois Ravshanning Go‘ro‘g‘liga erkinroqligi ham mantiqan to‘g‘ri. Ayniqsa, ko‘ngilga, muhabbatga doir intim tuyg‘ular haqida o‘g‘il otasiga biror narsa deyishi qiyin. Shu holat asarda juda ishonarli tasvirlangan: «*Ravshanxonni otasining savlati bosib, hayosi g‘olib kelib, nima derini bilmay o‘ylanib turib edi, axiri bo‘lmadi. Otasiga gapirmay o‘tsa, u ham*

¹ Нигин – узук.

² Бандига олган – асирга олган.

³ Банди – дуоли ёзув, тилсим.

⁴ Узик – етук, камчиликсиз.

⁵ Куни кечар – куни ётар.

bo‘lmaydi, gapiray desa, uyaladi». Shuning uchun ham Ravshaninng javobi to‘ppa-to‘g‘ri emas, balki bir qadar pardali, bir muncha «qog‘ozga o‘ralgan» holda berilgan:

Jonim ota, aytolmayman uyalib,
Bolang ketar endi boshini olib.

Qaladan⁶ qalampir yuklar qalachi⁷,
Har xil isli bo‘lar tog‘ning og‘ochi.

Chambil deydi unib-o‘sgan elingni,
Javob ber, otajon, ko‘tar qo‘lingni⁸!

Talab qildim, Shirvon elga otajon!
Javob bersang, bermasang ham ketaman!

Javob ber otajon, yorga boraman,
Yor deymanku, nomus-orga boraman.

Ota sendan oq fotiha tilayman,
Shirvon elda Zulxumorga boraman.

O‘quvchilar Ravshanning so‘zidagi e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan o‘rinlarni nazardan qochirmasliklari muhim. Negaki, uning yordan ham ko‘ra «nomu-or» uchun ketayotgani anglashilsagina, o‘spirinning keyingi tutumlarida mantiq ko‘rinadi.

Hasanning javobidagi: *«Bir qiz uchun unutmagin bizlarni, Unutma otang ham onang qarzini!»*– so‘zida o‘zbek otalariga xos bosiqlik, donolik, hikmat bilan so‘zlash holatlari kuzatiladi:

O‘zingdan pastlarman har yo‘lga ketma!
Bolam, aytgan nasihatim unutma!
Oldingdan kim chiqsa, besalom o‘tma!
Bir g‘aribni ko‘rsang, zinhor og‘ritma!

⁶ +ала – шашар.

⁷ +алачи – шашарлик.

⁸ «Дуо =ил» маъносида.

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!
Nasihatim yod qilib ol, yolg'izim,
Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

O'zbek hayotining muhim bir qirrasida mahorat bilan aks etganini o'quvchilar payqashlari muhim. Ya'ni, na bola va na ota Ravshanning onasidan biror og'iz so'rashni xayoliga ham keltirmaydi. Bu degani ularning onani mensimasliklari, u bilan hisoblashmasliklari yoki unga nisbatan ehtiromning yo'qligidan emas, balki o'zbek turmushida barcha muhim qarorlar erkaklar va erlar tomonidan qabul etilishining badiiy tazohiridir

O'quvchilar tahlil jarayonida hayot mantig'i bilan badiiy mantiqni nazardan qochirmasliklari, har bir badiiy unsur zamiridagi hayotiy asosni payqashga odatlanishlari zarur. Chunonchi, o'quvchilar Ravshanning Zulxumorga munosabati muayyan hayotiy zaruriyat ekanligi, garchi ular o'rtasidagi muhabbat tasodifga asoslangan bo'lsa-da, o'sha tasodifning o'zi zaruriyatdan paydo bo'lganligining ishonarli tasviri bolalar e'tiboridan chetda qolmasligi lozim. O'quvchilar diqqati asarda aks etgan voqealar oqimigagina qaratilib qolmay, ana shu voqealar bayoni asnosida qo'llanilgan badiiy san'atlar hamda ijodkorning mahoratini namoyon qiluvchi jihatlarga yo'naltirilsa, ularning ko'ngil ko'zi ochiladi. Shunda bolalar so'zning sehrini his etadi, uning badiiy ichki mohiyatini, yashirin qirralarini topa oladigan bo'lib boradi.

Ravshanbek Zulxumor savdo qiladigan qalpoq bozorini izlar ekan: «Uzoqdan kelayotibman, G'amning loyiga botibman», deya nola qiladi. /am singari o'ta mavhum ruhiy tushunchaning hayotda ko'p uchraydigan g'oyat jo'n va oddiy narsa holida tasavvur etilishi qahramonning ruhiy holatini juda aniq ifoda etadi. Loy yopishqoq, qutulish oson bo'lmagan kirlik bo'lganligi uchun ham bu tashbehda Ravshanning ilojsiz holati, uning tushkun kayfiyati aniq aks etgan:

Uzoqdan kelayotibman,
G'amning loyiga botibman,
E yoronlar, birodarlar, birodarlar!
Men yorimni yo'qotibman.
E yoronlar, birodarlar, xaloyiq!
Men yorimdan adashibman...

Elda davron surgan bormi?
O'z davriman yurgan bormi?

Bizning yordan ko'rgan bormi?
Yor daragin bergan bormi?
Toblab zulfin o'rgan bormi?
Yorman suhbat qurgan bormi?
Yoki birga yurgan bormi?
Bog'idan gul tergan bormi?
Bizning yordan ko'rgan bormi?
Yor daragin bergan bormi?..

O'qituvchi doston vazni ham qahramon holatidagi o'zgarishlarga muvofiq tarzda turlanib borishiga o'quvchilar diqqatini qaratishi zarur. Ayniqsa, asarning ohangi bir qo'shiqning o'zida ham turlicha ekanini payqash bolalarning badiiy didi o'sishiga katta yordam beradi. Ravshanning qalpoq bozorini surishtirib aytgan so'zlarining o'zidagi uch xil ohangni o'quvchilar bilishlari lozim. Qahramonning mungli nola, o'ziga xos yo'qlov ohangi bilan boshlangan so'zi o'rtaroqqa kelib, hazilomuz tus oladi. So'ngroq Ravshanning so'zlarida kinoya unsurlari ko'rinadi. Ayniqsa, «*Holin bilmas bir nechalar, Bedov mingan boyvachchalar*» yoki «*Tinmay elni kezarchilar, Jo'n savdoni buzarchilar*» singari o'rinlarda hazil yaqqol ko'rinadi. Keyinroq ohang yana jiddiylashadi. Ma'shuqasini topolmagan oshiqning intizorliklari matn zamiridagi hazin ifodadan sezilib turadi. Ravshan o'z so'zini kuchli mung, ushalmay turgan armon ohangida yakunlaydiki, bu ruhiy tovlanishlar ifodasini payqashga qodir bo'lgan o'quvchilar ma'naviy olamining boyishi shubhasizdir.

Ko'z juda ko'p narsalarni ko'radi. Ammo ko'ngil nazari tushmasa, ko'rilgan narsalar kishining xotirida qolmaydi. Dunyoga suqlanib, zavqlanib qaralgandagina uning ajoyibotlari o'zini namoyon etadi. Agar bolalar yoshligidan o'zga kishilarning ruhiy holatlarini ilg'ab olishga o'rganmasalar, to'la ma'nodagi shaxs bo'lib shakllana olmaydilar. Badiiy asar qahramonining holatini his qilmaydigan o'quvchi hayotda ham o'zga kishilarning holatini anglamaydigan, birovni tushunmaydigan quruq kimsa bo'lib qolishi mumkin. Bu holning oldini olish uchun ham o'quvchilarning ko'ngil ko'zlarini ochishga alohida z'tibor berish lozim.

O'qituvchi asar tasviriy qudratining bolalar tomonidan to'liq payqalishiga erishishi lozim. Chunonchi, Ravshanning «qalpoq bozori qaydadir», deya solgan vahimasiga nashavand bir kishining munosabatiga e'tibor berilgani ma'qul. Nashavandning bir necha jumladangina iborat so'zlarida o'zbeklarning tabiatidagi bir oz shoshqaloqlik, soddalik, beparvolik singari xususiyatlar mukammal aks ettirilganligiga bolalar e'tibori qaratilishi lozim.

Xulosa

Dostonlar xalqimiz hayotida yuz bergan ma'lum bir tarixiy voqealarni o'zida badiiy ifoda etib, xalqimizning tarixi, ijtimoiy hayoti, urf-odati va an'analarini, ichki ruhiy olami va milliy o'zligini rang-barang obrazlarda in'ikos ettiradi. Dostonning yana bir muhim xususiyati shundaki, ular tarixiy voqelikni badiiy ifoda etib, adabiyot va tarixni bir-biri bilan uzviy bog'lashda ko'prik vazifasini ham o'tab, fanlararo bog'liklikni amalga oshirish vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Ko'pchilik timsollar tabiati o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qaxramonlar tabiatiga xos bunday xislatlarning o'quvchilar takdiriga ta'siri masalasi DTS, dastur va darsliklarda xam alohida ta'kidlangan.

Shuni aytish lozimki, o'quvchilarni 7-sinfda «Ravshan» dostoni bilan tanishtirish ularni barkamol shaxs etib tarbiyalashga, ma'naviy-axloqiy sifatleri va fazilatlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari dastur va darsliklarining taxlili shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi namunalari, ayniksa, dostonlar asosida o'quvchilarning ma'naviy-axlokiy tarbiyasi rivojida katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Balki, bunday o'quv mashg'ulotlarida dostondagi yetakchi g'oyalarga, milliy va umumbashariy ahamiyatga molik omillarga, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi bilan bogliq asosiy nuqtalariga ko'proq e'tibor qaratilishi va ahamiyati ilg'ab olinishi adabiy ta'lim maqsadiga muvofiq keladi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, xulosa qilib aytganda, 7-sinfda «Ravshan» dostonini o'rganish katta ahamiyatga ega. Birinchidan, o'quvchi bu doston o'tmishdan bohabar bo'ladi va unda ajdodlarga nisbatan fahr tuyg'usi shakllanadi. Bu esa uning shaxs sifatida shakllanishida o'zining ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ikkinchidan, o'quvchilar bu dostonni o'qishlari, o'rganishlari orqali badiiy estetik didi oshadi.

Bu sanab o'tilgan natijalarga erishish uchun o'qituvchi 7-sinfda «Ravshan» dostonini o'tish, ya'ni qanday tashkillashtirishga doir metodik tavsiyalardan habardor bo'lishlari kerak. Shu asosida DTS ga tayangan holda 4 soatga mo'ljallangan «Ravshan» dostonini o'rgatish yuzasidan yuqoridagi ishimizda turli usullardan foydalandik va tavsiya etdik.

Bu usullarni qo'llash asosan, o'quvchilarga nimani berish kerak, «qanday berish kerak» kabi fikrlar asosida tashkillashtiriladi.

Bunda asosan, o'quvchilarning erkin fikrlashlari, ijodiy yondashishlari, og'zaki va yozma nutqini ravon va tezkorligini ta'minlash kabilar asosiy masala qilib qo'yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent.2008.
- 2.Sultonmurodov O, Ahmedov s, Qo'chqarov R., Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 8-sinfi uchun darslik majmua) G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi,-T.:2006
- 3.Razzaqov H, Mirzaev F, Sobirov O, Imanov K.. O'zbek xalq poetik ijodi.-T.: O'qituvchi 1980
- 4.Zunnunov A, Holmatov N,Esonov Z, Iborohimov a., Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: O'qituvchi. 1992
- 5.Doimov S, Ubaydullaev H, Ahmedov Q, Adabiyot o'qitish metodikasi.-T:O'qituvchi 1967
6. To'xliiev B, Adabiyot o'qitish metodikasi.-T:Yangi asr avlodi, 2006
- 7.Yo'ldoshev Q, Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.-T.: O'qituvchi, 1996
8. Davronova Sh. Alpomish dostonini mustaqil o'qitish //Til va adabiyot ta'limi, 2009-1
- 9.Rejabova I.Adabiyot darslarida o'quvchilarni guruhlashtirish haqida// Til va adabiyot ta'limi, 2009- 9